


FARG'ONA VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 - yil yanvar- noyabr dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 11 481,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 456,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,5 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlari tovar aylanmasi 10 025,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1089,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2019 - yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Qo'shtepa, Oltiariq va Uchko'prik tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga o'sdi va 1 456,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,7 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 10 025,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,3 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2018-yil
yanvar-noyabr



2019- yil
yanvar-noyabr



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa (99,9 %), Farg'ona (99,4%) So'x (99,4) Furqat (98,4 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko'rinib turibdi.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,7 % ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg'ona shahar (27,6 %), Qo'qon (18,6 %), Bag'dod tumani (17,2 %) va shaharlarida kuzatilgan.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	1 456,0	111,5	10 025,7	103,9
shaharlar				
Farg'ona	815,8	115,1	2 142,2	102,5
Qo'qon	311,6	107,8	1 364,0	105,9
Quvasoy	13,5	70,1	265,7	108,0
Marg'ilon	92,0	116,5	851,5	106,3
tumanlar				

Oltiariq	15,0	94,9	433,9	105,0
Qo'shtepa	1,0	132,4	685,2	103,3
Bag'dod	67,9	144,8	327,9	100,2
Buvayda	7,9	118,5	398,2	103,5
Beshariq	7,2	97,4	377,9	106,2
Quva	39,7	183,4	507,1	99,4
Uchko'prik	15,5	223,8	417,8	101,7
Rishton	15,4	58,8	282,9	107,7
So'x	1,2	153,8	189,1	101,7
Toshloq	19,6	85,2	271,6	106,8
O'zbekiston	9,0	102,1	331,0	103,9
Farg'ona	2,6	11,3	407,7	110,4
Dang'ara	7,7	107,5	253,8	102,4
Furqat	3,1	102,4	187,2	102,8
Yozyovon	10,4	89,2	331,0	103,4

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019- yil yanvar- noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 3 096,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-noyabr oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (10 353,5 ming so'm), Qo'qon (6 697,2 ming so'm) va Marg'ilon (4 056,0 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston (1 447,8 ming so'm), Dang'ara (1 533,2 ming so'm) va Toshloq (1 466,4 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Fargʻona viloyati	3 096,4	102,9
shaharlar		
Fargʻona	10 353,5	103,7
Qoʻqon	6 697,2	104,7
Quvasoy	3 027,6	103,7
Margʻilon	4 056,0	105,7
tumanlar		
Oltiariq	2 157,1	102,7
Qoʻshtepa	3 671,7	101,4
Bagʻdod	1 871,3	98,2
Buvayda	1 813,5	101,8
Beshariq	1 715,5	104,2
Quva	2 151,9	101,1
Uchkoʻprik	1 928,5	101,7
Rishton	1 500,8	101,4
Soʻx	2 485,1	100,1
Toshloq	1 466,4	103,0
Oʻzbekiston	1 447,8	102,0
Fargʻona	1 957,7	102,7
Dangʻara	1 533,2	100,7
Furqat	1 637,1	101,3
Yozyovon	3 144,0	101,0

Jumladan, 2019 yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,0 % ni tashkil etib, 225,6 mlrd. soʻmga yetdi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 % oʻsishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga toʻgʻri kelmoqda.

**Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmi
(mlrd. soʻm)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi kuzatilib, nisbatan, Fargʻona (57,0 %), Qoʻqon(12,0 %), Margʻilon (7,8 %) shaharlarida, shuningdek, Uchkoʻprik (5,1 %),Rishton (2,2 %) va Fargʻona (2,0 %) tumanlarida qayd etildi.


FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 556,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 - yilning shu davriga nisbatan 7,8 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019- yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra 3 659,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,9 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 80,3 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon, Quvasoy shahar, Qo'shtepa, Buvayda, Beshariq (100,0 %) hamda Oltiariq (99,9 %), Dang'ara (99,8 %) va Uchko'priq (99,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik , kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridagi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




■ Yirik korxonalar
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 19,7 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Farg'ona (48,6 %), Bog'dod (18,4 %) tumanlarida hamda Qo'qon (15,7 %) shahrlarda kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	4 556,6	107,8	837,3	103,4	3 659,0	108,9
shaharlar						
Farg'ona	1 632,0	110,8	794,0	100,5	838,1	123,1
Qo'qon	576,2	110,8	90,6	257,4	485,7	100,7
Quvasoy	74,2	105,9	0,0	-	74,2	105,9
Marg'ilon	607,5	108,1	0,1	3,8	607,5	108,4
tumanlar						
Oltiariq	90,5	105,3	0,1	54,2	90,4	105,4
Qo'shtepa	5,9	104,3	0,0	-	5,9	104,3
Bag'dod	39,7	104,0	7,3	28,0	32,4	269,8
Buvayda	64,5	104,3	0,0	-	64,5	104,3
Beshariq	49,2	105,1	0,0	-	49,2	105,1
Quva	34,4	103,0	0,6	100,0	33,9	101,3
Uchko'prik	162,7	103,9	0,9	123,7	161,8	103,8
Rishton	19,4	103,6	0,5	112,0	18,9	103,4
So'x	2,7	104,1	0,2	46,1	2,5	114,2
Toshloq	230,7	104,3	2,2	105,6	228,6	104,3
O'zbekiston	669,1	104,2	0,3	78,3	668,8	104,2
Farg'ona	40,2	102,1	0,2	4,2	40,0	116,8
Dang'ara	194,2	104,0	0,4	157,8	193,8	103,9
Furqat	26,1	102,5	0,0	-	26,1	102,5
Yozyovon	37,2	101,5	0,3	153,8	36,8	101,2

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Yozyovon (101,5 %) va Farg'ona (102,1 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi

Tel.:71-230-87-18